

**Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida
2023 yil 12 oyi yakuni bo'yicha**

UMUMIY HISOBOT

I. Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining Favqulodda vaziyatlar vazirligi shaxsiy tarkibi o'rtasida 2023 yilda harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va qonunbuzilishi holatlarini oldini olish, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasida 2022 yil dekabrda tasdiqlangan.

Tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasida "Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari" belgilangan bo'lib, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar tomonidan 2023 yil 12 oy davomida **"Biz korrupsiyaga qarshimiz"**, **"Korrupsiyasiz faoliyat - rivojlanish garovi"**, **"Korrupsiyaga qarshi kurashni o'zimizni isloh qilishdan boshlaylik"** va **"Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik"** mavzularida **jami 3090 marotaba** profilaktik tadbirlar o'tkazilib ushbu tadbirlarning barchasiga jami shaxsiy tarkibning **112305 nafari** (shaxsiy tarkib soni takror-takror o'tkazilishi hisobiga olingan) jalb etilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning **1681 nafar** xodimlari ishtirokida seminar, o'quv-mashg'ulotlari va davra suhbatlari o'tkazilgan.

II. Siyosat va tartib-taomillar.

Favqulodda vaziyatlar vazirining **2021 yil 30 oktyabdagi 312-, 313-, 314- va 315-sonli buyruqlari** bilan korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar qabul qilingan, jumladan:

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti;

Shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirining “Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat tekshiruvini tayinlash va o‘tkazish tartibi haqida”gi Yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida 2021 yil 23 iyundagi 191-sonli hamda Favqulodda vaziyatlar vazirining “Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchi va xizmatchilarning odob-ahloq qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022 yil 25 oktyabdagi 497-sonli buyrug‘i qabul qilingan.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2021 yil 30 oktyabdagi 315-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga asosan Favqulodda vaziyatlar vazirligi, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amalga oshirildi.

Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatariga ega ko‘p duch keladigan faoliyat sohalari va ularning vazifa hamda funksiyalari (vakolatlari)ning ro‘yxati shakllantirilgan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurash tartib-taomillari, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2021 yil 30 oktyabdagi 314-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomaga asosan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tuzilmalarda harbiy xizmatchilardan (xizmatchi) manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida jami 2023 yil davomida jami **1215 ta nomzodlar** o‘rganilgan.

Xususan, Qoraqolpog‘iston Respublikasi FVB tomonidan **85 ta**, Andijon viloyati **7 ta**, Buxoro viloyati **58 ta**, Jizzax viloyati **48 ta**, Qashqadaryo viloyati **164 ta**, Navoiy viloyati **71 ta**, Namangan viloyati **79 ta**, Samarqand viloyati **70 ta**, Sirdaryo viloyati **34 ta**, Surxondaryo viloyati **44 ta**, Toshkent viloyati **316 ta**, Toshkent shahar **56 ta**, Farg‘ona viloyati **96 ta** va Xorazm viloyati **27 tani** tashkil etadi.

V. Korrupsiyaga qarshi qoidalarni vazirlik shartnomalariga kiritish.

Vazirlik tizimida hududiy boshqarmalar tomonidan xo‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni hamda xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish maqsadida mehnat shartnomasiga qo‘shimcha kelishuv namunasi vazir o‘rinbosarining 2022 yil 3 iyundagi 199-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan.

Vazirlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar tomonidan xodimlar bilan mehnat shartnomasiga qo‘shimcha kelishuvlar tuzilgan bo‘lib, tasdiqlangan mehnat shartnomasiga qo‘shimcha kelishuvga quyidagilar kiritilgan:

o‘z vakolatlarni suiiste‘mol qilmaslik;
va‘da bermaslik;

noqonuniy pul to'lamaslik, tovlamachilik va ta'magirlik qilmaslik;
bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik;
pora olmaslik, pora taklif qilmaslik yoki vositachilik qilmaslik;
biron-bir shaxs foydasiga yoki biron-bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik;
qimmatbaho sovg'a, mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik;
yaqin qarindoshi bo'lmagan chet el fuqarolari bilan munosabatga kirishmaslik
yoki ruxsatsiz xorijiy davlatlarga chiqmaslik majburiyatini oladi.

VI. Kontragentlarni tekshirish.

Hisobot davrida, vazirlik Markaziy apparati tomonidan jami "E-xarid" elektron tizimiga **293 ta lot** qo'yilgan bo'lib, shundan **232 tasi** bo'yicha shartnomalar imzolangan, **61 ta lot** bo'yicha texnik topshiriqdagi parametrlar to'liq bo'lmagani uchun uchun lot qaytarilgan (*o'rganishlar olib borilmoqda*), barcha **293 ta lot** kontragentlar bo'yicha tekshiruvdan o'tkazilgan.

Shuningdek, shu davrda **jami 1367 ta** ya'ni, Qoraqolpog'iston Respublikasi FVB tomonidan **45 ta** (*barchasi bilan to'liq shartnoma tuzilgan*), Andijon viloyati **274 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Buxoro viloyati **235 ta** (*214 tasi bo'yicha shartnomalar imzolangan, 21 ta lot qaytarilgan*), Jizzax viloyati **120 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Qashqadaryo viloyati **140 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Navoiy viloyati **38 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Namangan viloyati **45 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Samarqand viloyati **135 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Sirdaryo viloyati **62 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Surxondaryo viloyati **31 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Toshkent viloyati **82 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Toshkent shahar **102 ta** (*shartnoma tuzilgan*), Farg'ona viloyati **21 ta** (*shartnoma tuzilgan*) va Xorazm viloyati **37 ta lotlar** (*shartnoma tuzilgan*) kontragentlar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilgan.

VII. Ishga nomzodlarni tekshirish.

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2021 yil 30 oktyabdagi 314-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma talabiga asosan jami **1215 ta** nomzodlar tekshiruvdan o'tkazilgan.

Jumladan, Qoraqolpog'iston Respublikasi **85 nafar**, Andijon viloyati **67 nafar**, Buxoro viloyati **58 nafar**, Jizzax viloyati **48 nafar**, Qashqadaryo viloyati **164 nafar**, Navoiy viloyati **71 nafar**, Namangan viloyati **79 nafar**, Samarqand viloyati **70 nafar**, Sirdaryo viloyati **34 nafar**, Surxondaryo viloyati **44 nafar**, Toshkent viloyati **316 nafar**, Toshkent shahar **56 nafar**, Farg'ona viloyati **96 nafar**, Xorazm viloyati **27 nafar** nomzodlar tekshirilgan.

VIII. Ta'lim va kommunikatsiya.

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2022 yil 31 martdagi "Vazirlik tizimida "halollik vaksinasi" tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi

va odob-axloq me'yorlari bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish to'g'risida" 130-sonli buyrug'i bilan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida "halollik vaksinasi" tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq me'yorlari bo'yicha maxsus o'quv kurslarida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha" Yo'riqnoma tasdiqlangan.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kursantlari, Akademiya huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti tinglovchilari, Akademiya huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi tinglovchilarining mavjud o'quv reja va dasturlariga o'quv hajmining **5 foizidan** kam bo'lmagan miqdorda (yangi o'quv yilidan) huquqiy tayyorgarlik yo'nalishida "halollik vaksinasi" tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odo-axloq me'yorlari bo'yicha o'quv soatlari kiritilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining Favqulodda vaziyatlar vazirligi shaxsiy tarkibi o'rtasida 2023 yilda harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va qonunbuzilishi holatlarini oldini olish, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida, vazirlik Markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar shaxsiy tarkibi ishtirokida "**Korrupsiyaga qarshi kurashni o'zimizni isloh qilishdan boshlaylik**" mavzusida harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va qonunbuzilishi holatlarini oldini olish, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan davra suhbatlari o'tkazilgan, ushbu tadbir Harbiy prokuratura va Harbiy sud xodimlari ishtirokida o'tkazilgan bo'lib barchasi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan.

Hududiy boshqarmalar tomonidan "**Biz korrupsiyaga qarshimiz**", "**Korrupsiyasiz faoliyat - rivojlanish garovi**", "**Korrupsiyaga qarshi kurashni o'zimizni isloh qilishdan boshlaylik**" va "**Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik**" mavzularida harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va Qonun buzilishi holatlarini oldini olish, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan davra suhbatlari o'tkazilgan, ushbu tadbir Harbiy prokuratura va Harbiy sud xodimlari ishtirokida **jami 3090 marotaba** profilaktik tadbirlar o'tkazilib ushbu tadbirlarning barchasiga jami shaxsiy tarkibning **112.305 nafari** (shaxsiy tarkib soni takror-takror o'tkazilishi hisobiga olingan) jalb etilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning **1681 nafar** xodimlari taklif etilgan.

Jumladan, Qoraqolpog'iston Respublikasi FVB tomonidan **456 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **10411 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **294 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Andijon viloyati FVB tomonidan **253 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **7642 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **177 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Buxoro viloyati FVB tomonidan **54 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **1240 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **38 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Jizzax viloyati FVB tomonidan **282 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **9809 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **95 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan **73 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **1633 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **124 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Navoiy viloyati FVB tomonidan **184 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **11458 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **88 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Namangan viloyati FVB tomonidan **358 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **11743 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **136 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Samarqand viloyati FVB tomonidan **192 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **7651 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **103 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Sirdaryo viloyati FVB tomonidan **60 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **2915 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **168 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Surxondaryo viloyati FVB tomonidan **109 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **3045 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **66 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Toshkent viloyati FVB tomonidan **215 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **9763 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **118 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Toshkent shahar FVB tomonidan **161 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **13449 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **32 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Farg'ona viloyati FVB tomonidan **406 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **14750 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **108 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan;

Xorazm viloyati FVB tomonidan **287 ta** tadbir o'tkazilgan va ushbu tadbirlarga **6795 nafar** shaxsiy tarkib jalb etilgan hamda **134 nafar** huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari taklif etilgan.

IX. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga 2023 yilning 1 yanvaridan – 31 dekabrigha qadar ya'ni **12 oy davomida** Ishonch telefoni orqali kelib tushgan murojaatlar tahlil qilindi va quyidagilar aniqlandi.

Shu davrda jismoniy va yuridik shaxslardan jami **238 ta** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, o'rnatilgan tartibda o'rganib chiqilgan, shundan **28 tasi** ijobiy hal etilgan, **155 tasiga** tushuntirish berilgan, **45 tasi** taalluqliligi bo'yicha boshqa idoralarga yuborilgan, **1 tasi** ko'rib chiqishdan tugatilgan va **9 tasi** keyingi hisobot davriga qoldiq bo'lib o'tgan.

Shu davrda "Ishonch telefoni" orqali kelib tushgan murojaatlarning **32 tasi** favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi holatlar bo'yicha (*noqonuniy qurilishlar va h.k.*), **1 tasi** qutqaruv xizmatining faoliyati bo'yicha, **51 tasi** FVV xodimlarining harakatlari bo'yicha, **18 tasi** Favqulodda vaziyatlar vazirligiga xizmatni tiklash yoki qabul qilish bo'yicha, **15 tasi** ijtimoiy masalalar

bo'yicha (pensiya, aliment, kompensatsiya, uy-joy va h.k.), **10 tasi** ruxsatnoma, ma'lumotnoma va hujjatlar olish bo'yicha, **45 tasi** Favqulodda vaziyatlar idoralari faoliyatiga aloqasi bo'lmagan masalalar bo'yicha va **66 tasi** turli taklif va masalalar bo'yicha qilingan.

Tahlillarga ko'ra, shu davrda favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi holatlar bo'yicha (*noqonuniy qurilishlar va h.k.*), xodimlarining harakatlari hamda tizimga xizmatga (ishga) kirish bo'yicha murojaatlar soni ko'payganligi holati har chorakda muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilash choralari ko'rib borilmoqda.

Ishonch telefoni orqali "Korrupsiya" bilan bog'liq murojaat kelib tushmagan. Kelib tushgan murojaatlar alohida nazoratga olingan.

X. Monitoring va nazorat

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2021 yil 30 oktyabdagi 312-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti talabidan kelib chiqib, vazirlik xodimlarining korrupsiyaga qarshi tegishli buyruqlarda asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish bo'yicha test savollari ishlab chiqilib quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi FVBda **927 nafar**, Andijon viloyati FVBda **86 nafar**, Buxoro viloyati FVBda **1197 nafar**, Jizzax viloyati FVBda **642 nafar**, Qashqadaryo viloyati FVBda **1372 nafar**, Navoiy viloyati FVBda **1035 nafar**, Namangan viloyati FVBda **367 nafar**, Samarqand viloyati FVBda **797 nafar**, Sirdaryo viloyati FVBda **214 nafar**, Surxondaryo viloyati FVBda **1563 nafar**, Toshkent viloyati FVBda **1210 nafar**, Toshkent shahar FVBda **1173 nafar**, Farg'ona viloyati FVBda **1067 nafar** va Xorazm viloyati FVBda **832 nafar jami 12482 nafar** xodimlar korrupsiyaga qarshi tegishli buyruqlarda asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligi test sinovlari asosida tekshirildi.

IX. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi holati aniqlanmagan.

X. Xulosalar.

Vazirlik tizimidagi hududiy boshqarmalar tomonidan 2023 yilning:

1-choragida "**Biz korrupsiyaga qarshimiz**";

2-choragida "**Korrupsiyasiz faoliyat - rivojlanish garovi**";

3-choragida "**Korrupsiyaga qarshi kurashni o'zimizni isloh qilishdan boshlaylik**";

4-choragida "**Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik**" kabi mavzularida harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va Qonun buzilishi holatlarini oldini olish, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan umumprofilaktik tadbirlar (*davra suhbatlari, yig'ilishlar, seminarlar va h.k.*) o'tkazilgan.

Mazkur tadbirlar harbiy prokuratura va harbiy sud xodimlari ishtirokida **jami 3090 marotaba** (2022 yil davomida **3749 marotaba**) profilaktik tadbirlar o'tkazilib ushbu tadbirlarning barchasiga jami shaxsiy tarkibning **112305 nafari** jalb etilib (2022 yil davomida **83.526 nafar**), huquqni muhofaza qiluvchi organlarning **1681 nafar** (2022 yil davomida **1459 nafar**) xodimlari taklif etilgan.

Hududiy boshqarmalarning **jami 12482 nafar** xodimlari korrupsiyaga qarshi tegishli buyruqlarda asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirilgan.

XI. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha tadbirlar rejasi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining Favqulodda vaziyatlar vazirligi shaxsiy tarkibi o'rtasida harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va qonunbuzilishi holatlarini oldini olish, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan 2024 yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasida belgilangan mavzularida vazirlik tizimida barcha shaxsiy tarkibni jalb qilgan holda umumprofilaktik tadbirlar o'tkazish;

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2022 yil 31 martdagi 130-sonli buyrug'iga asosan **"halollik vaksinasi"** tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq me'yorlari bo'yicha maxsus o'quv kurslarida o'qitish ishlarini tashkil etish;

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2021 yil 30 oktyabdagi 312-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti talabidan kelib chiqib, vazirlik xodimlarining **korrupsiyaga qarshi tegishli buyruqlarda asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish bo'yicha** shaxsiy tarkibdan **test sinovlarini** o'tkazishni davom ettirish;

Davlat yong'in nazorati inspektorlari faoliyatida korrupsiya holatlarini oldini olish va ularning javobgarligini kuchaytirish bo'yicha choralarni belgilash va amalga oshirish yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan **chora-tadbirlar rejasining** ijrosini ta'minlash;

Har chorakda vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlarni **umumlashtirib, hisobotlarni** Korrupsiyaga qarshi kurashish **agentligiga taqdim etib borish.**

Favqulodda vaziyatlar vazirligi